



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2024 - yil 29 - yanvar

19-5-0-Q/24

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyatidagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 660-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 31-dekabrda 01/25-18/1119-sonli, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 31-dekabrda 25/4-2-sonli kelishuv xatlariga asosan 2024-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 31-dekabrda 01/25-18/1119-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 31-dekabrda 25/4-2-sonli kelishuv xatlariga asosan 2024-yil uchun davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarining kelishilgan hisob-kitoblari ma’lumot uchun qabul qilinsin

2. Quyidagilar:

Navoiy shahrida davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

Zarafshon, G‘ozg‘on shaharlari va tumanlarda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024 - yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 2-ilovaga muvofiq;

ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat mulki obyektlardan samarali foydalanish markazi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (A. Sharipov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilayotgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'ni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulki ro'yxatini "E-auksion" elektron savdo maydonchasida, davriy nashrlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Savdo-sanoat palatasining veb-saytlarida joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

4. Davlat mulki obyektlardan samarali foydalanish markazi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi (A.Sharipov), viloyat soliq boshqarmasi (A.Botiraliyev), shahar va tuman hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

5. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov) Davlat mulki obyektlardan samarali foydalanish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (A.Sharipov) bilan birgalikda davlat mulki obyektlarini ijaraga berish hisobiga mahalliy budjetga tushadigan mablag'larni nazoratga olsin hamda tushgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini ta'minlasin.

6. Vazirlik va idoralarning viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o'tkazsin va bo'sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo'yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanisigacha Davlat aktivlari agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarini taqdim etib borsin.

7. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh.Raubayeva) Davlat mulki obyektlardan samarali foydalanish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi

(A.Sharipov) bilan birgalikda mazkur qarorni “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalarida e‘lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishini ta‘minlasin.

8. Viloyat hokimining 2023-yil 30-yanvardagi “Navoiy viloyatidagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi 9-5-0-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari T. Atamurodov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 29-yanvardagi
19-5-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahrida davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1	Yoqilg'i ishlab chiqarish	13 800
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari)	13 800
3	Neft-kimyo sanoati	13 800
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	13 800
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	13 800
6	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	11 250
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	13 800
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	13 800
10	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	13 800
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	13 800
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	13 800
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	13 800
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	13 800
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	43 730
Qurilish sanoati		
16	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	11 250
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	41 640
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	73 080
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	13 800
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	13 450
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	43 730
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	30 970
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati		
23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	13 800
24	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	13 800
25	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	13 800
Yengil sanoat		

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
26	To'qimachilik sanoati	13 800
27	Tikuvchilik sanoati	13 800
28	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	13 800
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	13 800
Oziq-ovqat sanoati		
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	13 800
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	13 800
32	Sut mahsulotlari sanoati	27 020
33	Baliq mahsulotlari sanoati	13 800
34	Tegirmonchilik sanoati	13 800
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	11 250
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	13 800
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	13 800
Sanoatning boshqa tarmoqlari		
38	Tibbiyot sanoati	13 800
39	Poligrafiya sanoati	33 870
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	16 930
Qishloq xo'jaligi		
41	O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun	5 565 680
42	Issiqxona xo'jaligi	10 440
43	Chorvachilik va parrandachilik	6 610
44	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	5 565 680
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	3 618 040
46	Veterinariya xizmatlari	13 800
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	13 800
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	5 565 680
Transport va aloqa		
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	13 800
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 480
51	Avtomobillarni yuvish	44 660
52	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	44 660
53	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shaxobchalari)	54 280
54	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	23 660
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	25 080
56	Pochta aloqasi	13 800
57	Kurerlik aloqasi	27 840

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
58	Elektr-simli aloqa	27 840
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	116 920
Savdo va umumiy ovqatlanish		
60	Ulgurji savdo	38 970
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	100 100
62	Chakana savdo	38 970
63	Umumiy ovqatlanish	38 970
64	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	61 010
65	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	53 470
66	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari, shu jumladan, baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanishni tashkil etish*	38 970
67	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	61 010
68	Kitob do'konlari	5 450
69	Lombardlar	50 340
Xizmat ko'rsatish		
70	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	38 970
71	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	38 970
72	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	58 460
73	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	38 970
74	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	38 970
75	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	69 600
76	Mehmonxona ho'jaligi	44 540
77	Umumiy yashash joylari	34 680
78	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	22 410
79	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	33 520
80	Hammomlar	67 040
81	Saunalar va basseynlar	133 630
82	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	22 380
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot		
83	Sog'liqni saqlash	27 840

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
84	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	51 270
85	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	27 840
86	Fitobar	19 250
87	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	44 540
88	Suv bo'yida plyaj zonalarini tashkil etish*	27 840
89	Baliq ovlash maskanlari*	27 840
90	Qayiqda suzish va suv sayohati bo'yicha boshqa xizmatlar ko'rsatish*	27 840
91	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'ylarida turizm xizmatlarini tashkil etish*	27 840
92	Jismoniy tarbiya va sport	13 800
93	Dorixonalar	22 380
94	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	46 860
95	Ijtimoiy-dorixonalar	19 830
Ta'lim		
96	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	22 410
97	O'quv kurslarini tashkil etish (IT-kurslari)	45 930
98	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	17 470
99	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	11 250
100	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	27 140
101	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy ovqatlanish	13 800
102	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	9 860
103	Madaniyat va san'at	38 970
104	Ko'rgazmalar	30 040
105	Madaniyat va dam olish bog'lari	27 840
106	Botanika bog'lari va zooparklar	27 840
107	Televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari	27 840
108	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	44 540
109	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	16 930
110	Avtomaktablar	24 700
Moliya-kredit faoliyati		
111	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	38 970
112	Auditorlik faoliyati	38 970
113	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	38 970
114	Bank faoliyati	38 970

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Faoliyatning boshqa turlari		
115	Sug'urta va notarial xizmatlar	38 970
116	Sud va yuridik xizmat muassasalari	33 520
117	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	33 520
118	Jamoatchilik birlashmalari	11 250
119	Omborxonalar	38 970
120	Davlat tashkilotlariga ofis	16 930
121	Xususiy tashkilotlarga ofis	61 010
122	Arxiv xizmati	16 930
123	Tahririyat va nashriyotlar	22 380
124	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	22 380
125	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	22 380
126	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	44 540
127	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	33 870
128	Laboratoriyalar	27 840
129	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	111 820
130	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	32 940
131	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	61 010
132	Bankomatlar	557 720
133	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	38 970

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 29-yanvardagi
19-5-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Zarafshon, G‘ozg‘on shaharlari va tumanlarda davlat ko‘chmas mulkidan
foydalanganlik uchun 2024 - yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam
stavkalari**

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish		
1	Yoqilg‘i ishlab chiqarish	9 740
2	Kimyoviy ishlab chiqarish (o‘g‘it mahsulotlari)	9 740
3	Neft-kimyo sanoati	9 740
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	9 740
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	9 740
6	Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi	8 060
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	8 060
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	9 740
9	Metal konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati	9 740
10	Mashina va uskunalarni ta‘mirlash	9 740
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	9 740
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	9 740
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	9 740
14	Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	9 740
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	31 690
Qurilish sanoati		
16	Qurilish, yo‘l va kommunal muhandislik	8 060
17	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	29 790
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	41 770
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	9 740
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	9740
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	31 690
22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	22 450

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati		
23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	9 740
24	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	9 740
25	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	9 740
Yengil sanoat		
26	To'qimachilik sanoati	9 740
27	Tikuvchilik sanoati	9 740
28	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	9 740
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	9 740
Oziq-ovqat sanoati		
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	9 740
31	Go'sht mahsulotlari sanoati	9 740
32	Sut mahsulotlari sanoati	19 480
33	Baliq mahsulotlari sanoati	9 740
34	Tegirmonchilik sanoati	9 740
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	8 060
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	9 740
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	9 740
Sanoatning boshqa tarmoqlari		
38	Tibbiyot sanoati	9 740
39	Poligrafiya sanoati	28 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	11 870
Qishloq xo'jaligi		
41	O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun	3 986 190
42	Issiqxona xo'jaligi	8 960
43	Chorvachilik va parrandachilik	4 810
44	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	3 986 190
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	2 591 230
46	Veterinariya xizmatlari	9 740
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	9 740
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	3 986 190
Transport va aloqa		

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	9 740
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	2 680
51	Avtomobillarni yuvish	28 110
52	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	36 280
53	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shaxobchalari)	39 310
54	Elektromobillarni quvvatlash shahobchasi	17 136
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	18 140
56	Pochta aloqasi	9 744
57	Kurerlik aloqasi	19 820
58	Elektr-simli aloqa	19 820
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	83 770
Savdo va umumiy ovqatlanish		
60	Ulgurji savdo	28 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	71 560
62	Chakana savdo	28 000
63	Umumiy ovqatlanish	28 000
64	Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	43 790
65	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	38 300
66	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari, shu jumladan, baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanishni tashkil etish*	28 000
67	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	40 430
68	Kitob do'konlari	4 030
69	Lombardlar	36 060
Xizmat ko'rsatish		
70	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	28 000
71	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)	28 000
72	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	42 000

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
73	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	28 000
74	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	28 000
75	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	49 616
76	Mehmonxona ho'jaligi	31 800
77	Umumiy yashash joylari	24 300
78	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	15 970
79	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	24 300
80	Hammomlar	47 930
81	Saunalar va basseymlar	95 760
82	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari	15 900
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot		
83	Sog'liqni saqlash	19 820
84	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)	37 180
85	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	19 820
86	Fitobar	13 770
87	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	31 800
88	Suv bo'yida plyaj zonalarini tashkil etish*	19 820
89	Baliq ovlash maskanlari*	19 820
90	Qayiqda suzish va suv sayohati bo'yicha boshqa xizmatlar ko'rsatish*	19 820
91	Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'ylarida turizm xizmatlarini tashkil etish*	19 820
92	Jismoniy tarbiya va sport	9 740
93	Dorixonalar	15 900
94	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	25 200
95	Ijtimoiy-dorixonalar	12 880
Ta'lim		
96	Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash	15 900
97	O'quv kurslarini tashkil etish (IT-kurslari)	33 260
98	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	13 000
99	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 110

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
100	Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	19 600
101	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy ovqatlanish	9 740
102	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	7 390
103	Madaniyat va san'at	28 000
104	Ko'rgazmalar	22 510
105	Madaniyat va dam olish bog'lari	19 820
106	Botanika bog'lari va zooparklar	19 820
107	Televideniyalar va radioeshittirishlar redaksiyalari	19 820
108	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	31 810
109	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	11 870
110	Avtomaktablar	14 110
Moliya-kredit faoliyati		
111	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	28 000
112	Auditorlik faoliyati	26 200
113	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	28 000
114	Bank faoliyati	28 000
Faoliyatning boshqa turlari		
115	Sug'urta va notarial xizmatlar	28 000
116	Sud va yuridik xizmat muassasalari	24 300
117	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	24 300
118	Jamoatchilik birlashmalari	7 840
119	Omborxonalar	28 000
120	Davlat tashkilotlariga ofis	11 870
121	Xususiy tashkilotlarga ofis	43 790
122	Arxiv xizmati	9 960
123	Tahririyat va nashriyotlar	15 900
124	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	15 900
125	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	15 900
126	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	31 800
127	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	24 520

T/R	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2024 yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
128	Laboratoriyalar	19 820
129	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	79 960
130	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	23 850
131	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	43 790
132	Bankomatlar	399 390
133	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	24 300

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 29-yanvardagi
19-5-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar

I. Hududiy zonalar koeffitsienti-(Kz)			
T/r	Hududlar nomi	Zonalar	Koeffitsient
1	Navoiy shahri	1	3,0
	Zarafshon shahri	2	2,5
	Karmana tumani	3	2,0
2	Qiziltepa tumani	1	2,5
	Xatirchi tumani	2	2,0
	Uchquduq tumani	3	1,5
	Navbahor tumani	4	1,0
3	Konimex tumani	1	2,0
	Nurota tumani	2	1,5
	G'ozg'on shahri	3	1,0
	Tomdi tumani	3	1,0
II. Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsienti-(Kk)			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan		1,2
2.3	Binoning ustka qismi, cherdak, bolaxona		0,8
2.4	Yarim yerto'la, yer to'la		0,7
III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti- (Kx)			
3.1	Yer maydoni mavjud bo'lganda		0,7
IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsienti –(Ko)			
4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda		1,0
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda		0,7

Izoh: Navoiy viloyati hokimining 2017-yil 6-yanvardagi Q-3-sonli qaroriga asosan hududiy zona koeffitsienti ishlab chiqilgan.

a) Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko), \text{ bunda:}$$

Ts — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv. metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es — davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun bir yilga bir kv. metr uchun ijara to‘lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsienti;

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo‘llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

b) Mol-mulkning boshqa turlari uchun ijara to‘lovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo‘lmasa yoki ushbu muddatga teng bo‘lsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo‘lmasa - mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo‘lmasa - mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam bo‘lishi mumkin emas.

v) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi PF-287-son Farmonining 3-ilovasiga asosan 4-, 5-toifaga tushgan tumanlarda Davlat mulki obyektlarini ijaraga berishda auksionga chiqariladigan boshlang‘ich narxni belgilash (amaldagi stavkaga nisbatan) 50% chegirma beriladi.

1-toifa Navoiy shahar;

2-toifa Zarafshon shahri, Karmana tumani, Navbahor tumani, Uchquduq tumani;

3-toifa G‘ozg‘on shahri, Nurota tumani, Qiziltepa tumani;

4-toifa Konimex tumani, Xatirchi tumani;

5-toifa Tomdi tumani.